

*Qarshi davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent A.Xo'jaqulov*

## SHARQ VA G'ARB ALLOMALARINING HARAKATLI O'YINLAR HAQIDAGI TA'LIMOTLARI TAHLILI

*Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi:*

+99897311-15-98

*E-mail: [hamroyevaxolida99@gmail.com](mailto:hamroyevaxolida99@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sharq va g'arb allomalarining harakatli o'yinlar haqidagi ta'limotlari va ularning tahlili, harakatli o'yinlarning kelib chiqishi, ularni o'tkazish texnologiyasi, tavsiya etilgan yo'nalishlari haqida fikr va mulohazalar yuritilgan. Harakatli o'yinlar orqali olib boriladigan ishlar mazmuni, harakatli o'yinlarning asosiy xususiyatlari va maktabgacha ta'limdagi ahamiyati to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** maxsus harakat, tez harakat, yengil harakat, badantarbiya, rivojlanish, xalq o'yinlari, milliy o'yinlar, harakatli o'yinlar, sho'ng'ish.

Yurtimizning ertangi kuni, uning kelajakda gullab-yashnashi va rivojlanishi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan avlodning sog'lom bo'lishiga bog'liq. Bu esa o'z navbatida jamiyatimizning kelajagi farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo etadi. Milliy o'yinlarining vujudga kelishi va rivojlanishini o'rganishda sharqning buyuk namoyondalari Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Umar Xayyom, Amir Temur, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zayniddin Mahmud Vosifiy kabi buyuk insonlarning bizgacha yetib kelgan beqiyos boyliklarini o'rganish, bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalardandir.




**Abu Ali Ibn Sino** (980-1037) yillarda yashab ijod etgan bo'lib, u jahon tibbiyot fanining buyuk vakillaridan biridir. Ibn Sino falsafa, adabiyot, musiqa va boshqa ko'p sohalarini mukammal bilgan donishmand edi. Bugungi kunda hayotimizda unutilib borayotgan noyob merosimizni tiklash, sog'lom axloqiy muhitni shakllantirish, ma'naviy poklanish uchun uzoq o'tmishimizni o'rganish, shunday qadimiy va qiymatli tarixni yaratgan buyuk mutafakkirlarning ijodiga nazar tashlashimizga to'g'ri keladi. O'z davrining yetuk olimi sifatida mavjud fanlarning deyarli barchasi bilan shug'ullangan va ularga oid asarlar yaratgan qomusiy olimlardan biri Abu Ali ibn Sinodir. Mashhur shifokor, faylasuf, sho'rgina bo'lib qolmasdan, balki xalq o'yinlariga oid noyob va xilma-xil kamyob meros qoldirgan jahon ma'naviyat beshigini tebratgan Ibn Sino xalq o'yinlari haqida fikr yuritar ekan, bu borada zamondoshlaridan farq qilib, chuqur mushohada qiladi va muammolarga kuchli mantiq, hayotiy omillar zahirida, ziyarak aqli yordamida yechim topadi. Shu sababli ham mutafakkirning noyob merosi oradan ancha yillar o'tsa ham insoniyatga abadul-abad xizmat qilib kelmoqda. O'z asarlarida xalq o'yinlarining, ayniqsa, badantarbiyaning inson uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan Ibn Sino insonning ma'naviy yetuk, jismonan barkamol bo'lishi yo'lida butun umrini baxsh etgan olimdir. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik yo'nalishlarni aniqlashda, xalq o'yinlariga oid fikrlarini umumlashtirishda va ularni amaliyotga joriy qilishda Ibn Sinoning serqirra ijodiy faoliyatidagi

ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalari, ko'rsatmalari hamda maslahatlari nihoyatda ahamiyatli<sup>1</sup>. Ibn Sino inson organizmini sog'lomlashtirish va kasallikni davolash uchun **badantarbiyani beshta asosiy qismga** ajratadi, jumladan:

- Tez harakatlar:
- Nozik va yengil harakatlar
- Kuchliroq harakatlar
- O'rta kuchli harakatlar
- Gavda uchun maxsus harakatlar

Xalqimizning milliy sport turi bo'lgan milliy kurashimiz ayniqsa, Buxorocho va Farg'onacha kurash turi haqida ham Ibn Sino ko'plab ma'lumot qoldirgan. Ibn Sino "Kurashning turlari ham bir nechadir", - deydi. Kurashuvchilarning biri o'z raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortadi, shu bilan birga, o'yinchi raqibidan qutulishning yo'llarini izlaydi. Raqib o'yinchi uni qo'yib yubormaslikka harakat qiladi. Yana bir turi: ikki o'yinchidan biri ikki qo'li bilan raqib o'yinchini mahkam ushlab o'ziga tortadi va yerga yiqitadi, bu vaqtda birinchi kurashchining o'ng qo'li ostidan o'tkazishi lozim, o'yinchilar ba'zan gavdalarini tiklab, ba'zan bukiladilar. Ko'krak bilan zarbani qaytarish, ikkinchi bor kishining bo'ynidan ushlab pastga egish, bir-birining oyoqlarini o'z oyoqlari bilan chalkashtirib, chalib yoki ikkinchisining oyoqlarida turtib qilinadigan va polvonlar ishlatadigan harakatlar kurash turlariga kiradi.

#### MAHMUD KOSHG'ARIY



O'zbek xalq o'yinlari tarixida birinchi marta milliy o'yin namunalari bayon etilishi, ularing ta'rifi-tavsifi qomusiy allomalardan biri Mahmud Koshg'ariy qalamiga mansubdir. Bundan 1000 yillar avval, 6 yil davomida Xazar va Orol sohillaridan Tangritog' etaklarigacha, Turkistondan Termizgacha bo'lgan hududda yashagan turkman, o'g'iz, chigil, yag'mo, qirg'iz va boshqa turkiyzabon xalqlarining tarixi, o'lkalar jug'rofiyasi, urug', qabila, elatlarning til xususiyatlari, yozma va og'zaki adabiyoti, ko'chmanchi tuyakashlar, yilqichilar,

cho'ponlar, o'troq dehqonlar, bog'bon va kosiblarning yashash usullari, nutqiy talaffuzlari va turli atamalarini chuqur o'rganib, "Devon-u-lug'atit turk", ya'ni "Turkiy so'zlar devoni" ni tuzib chiqdi. Mahmud Koshg'ariy turli qabila-urug'larining bayramlari, tantanalari, urf-odatlarini, an'analari, kundalik faoliyatlari, kuy-qo'shiq va o'yinlari, diniy e'tiqodlari bilan astoydil qiziqib, bu beqiyos qadriyatlarining barchasini kelajak avlodlar uchun benazir meros sifatida yozib qoldirgan va o'z xalqi, vatanini sevgan, uning tili va madaniy-ma'naviy meroslarini qadrlagan. Asarda 150ga yaqin xalq o'yinlari yozilib, shulardan 20ga yaqin o'yin turiga batafsil ta'rif berilgan. Koshg'ariy kattalar va bolalarning yosh jihatlariga nisbatan ularga xos bo'lgan o'yin turlariga alohida to'xtalib, musobaqa turlarini tariflab o'tgan. Olim o'yinlarni diqqat bilan o'rganib, jismoniy va aqliy mashg'ulotlarga ajratgan. Anglash mumkinki, bugungi zamonaviy sport o'yinlarining ko'pchiligi XI asrda ham bor bo'lgan ekan. Bugungi kunda "Sport musobaqalari" deya nomlangan ibora "bahs" atamasi bilan nomlangan. Shu kabi bahslarning ko'p turlari borligi ham aytib o'tilgan. Misol uchun: balandga ilib qo'yilgan qovoqni mo'ljalga olib otmoq bahsi, o'q-yoy otib, qush va hayvonlarni ovlaroq, merganlikda bahs qilmoq, shuningdek arqon va taxtali sopqonlarda tosh otmoq kabilardir. Bu o'yin "Oltin qovoq" o'yini ham deb nomlangan. Asarda bu kabi bahslarning g'oliblarga beriladigan sovrinlari, qoida va shartlari, zaruriy asbob-anjomlari, usullari maxsus atamalar orqali batafsil bayon etilgan.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>


<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

Bilamizki, O`rta Osiyo xalqlarining juda qadimgi hamda sevimli ot sporti o`yinlaridan biri chavgon hisoblanadi<sup>2</sup>. Qadimda yigitlar ot ustida uzun, uchi egri, yapaloq “klushka” bilan o`ynalgan o`yinning hozirgi ko`rinish chim ustida o`ynaladigan xokkey o`yinidir. Chavgon o`yining o`ziga xos qoidalari, darvozalar, ko`ptokning o`lchami, katta-kichikligi, maydonning o`lchami va chegarasi ta`rifi, nimadan tayyorlanishi va boshqa xususiyatlari haqida Mahmud Koshg`ariy to`liq bayon qilib bergan. Shuning o`zi ham, chavgon o`yini yigitlarning balog`at yoshiga yetib, otda yurganda o`zini bemalol his qilib, tuta bilish, uning ustida ephillik va bilak kuchi bilan turli xil harakatlar qilishga tayyorlaydigan milliy sport turi ekanligini ko`rsatib turibdi. Chavgon o`yini el-yurt mudofasida zaruriy jismoniy mashqlardan biri bo`lganligi uchun ham, o`yin g`olibiga beriladigan sovrinlarning darajasiga alohida to`xtalib o`tadi. Yana shuni aytish munkinki, devonda quvlashish, tez yurish, toqqa chiqish, o`sha davrda otda poyga chopish, pastlikka tushish singari bahslar haqida ham ma`lumotlar berilgan.

Suvda o`tkaziladigan musobaqalar ham alohida diqqatga sazovordir. G`ovvoslik suv mashqlaridan biri bo`lgan va juda qadimiy kasblardan hisoblangan. Devonda suv bahslarining ikki turi uchraydi: suvda cho`milish, sho`ng`ish, suvdan suzib o`tish, suv kechish, suvda quvlashmoq birinchisi hisoblanadi. Ikkinchisi esa xushkayfiyat ulashuvchi mashg`ulotlar ma`nosidagi o`yinlar hisoblanadi. Har ikkalasi: suv ustida yalpoq toshni kim o`zarga otmoq, suv yoki sut simirmoq, ya`ni bahslashmoq ma`nolarida keladi. Bugungi kunda bolalar buni “qaymoq” o`yini deb nomlashagan. Toshning suvga necha marta tegib sakrab “qaymoq” hosil qilishini o`yinda alohida inobatga olinadi va eng ko`p “qaymoq” hosil qilgan o`yinchi g`olib deb topiladi. Devonda o`yinlarining bolalar uchun ko`p turi uchraydi. Ayrim turlari yo`l-yo`lakay aytib o`tilgan bo`lsa, ayrim o`yinlar esa ta`rifi bilan ko`rsatilgan. Misol uchun: bolalarning qorong`uda kelib “kurgon” olishlari – “Ko`ragumi” deyilsa, bir to`daning ikkinchi to`dani chaqqonlik bilan asir olishlari “Bandol” deya nomlagan. Chillak o`yinlari, oshiq o`yini, to`p o`yini, cho`pon bolalar o`yinlari, qizlarning arg`imchoq o`yinlari ham alohida sanab o`tilgan. Qadimgi o`yinlar-ning ko`pchiligi hozirgi paytdai o`yinlarini eslatadi. Masalan: “Darra soldi”, “Musht ketdi” o`yin “O`tish-o`tish” deb atalgan o`yin “Kesak kuydi”, kabi o`yinlarga o`xshaydi. Orol etaklarida, shuningdek, yaqin joylardagi soylar, anhorlar, hovuzlar va ko`l bo`ylarida Amudaryo va Sirdaryo sohillarida “Muguzmuguz” nomli qadimiy o`yin o`ynalgan. Devonda misol tariqasida “Oqsuyak” o`yini keltiriladi. Alisher Navoiy “Oqsuyak” o`yining ta`rifini “Mahbub ul-qulub” asarida beradi. XI asrda Mahmud Koshg`ariyning devoni, XV asrda esa Alisher Navoiy-ning “Mahbub ul-qulub” asari yozilgan. Bugungi kunga kelib bolalar “Oqsuyak” o`yini aynan o`sha qoidalar asosida o`ynab kelmoqdalar. O`rta Osiyoda, balki dunyoning ko`pgina yerlarida “Oqsuyak” o`yini keng yoyilgan. Yevropaning Skandinaviya mamlakatlari xalqlari etnografiyasiga oid adabiyotlarda ham bu o`yinni topishimiz mumkin. Yana shuni aytishimiz munkinki, bu o`yin Avstraliyada ham o`ynaladi. Xalq o`yinlari hech qachon chegara bilmaydi va o`yinlar xalqlar orasidagi o`zaro qon-qardoshlik, hamdo`stlik aloqalarini mustahkamlash yo`lida asosiy vosita vazifasini bajaradi.

### **G`arb allomalarining harakatli o`yinlar haqidagi ta`limotlari**

XIX asrda G.V.Plexanov, N. Pisarev, P.F.Lesgaft, N.K.Krupskaya, A.S.Makarenko, Vittorino, G. Belinskiy, G. Chernishevskiy, A. Dobrolyubov va N. Pisarevlar Rossiyada ta`lim-tarbiya ishlarida, jumladan, jismoniy tarbiyada harakatli o`yinlardan keng ko`lamda foydalanish kerakligini takidlashgan. Ular harakatli o`yinlarga xalqning sog`lig`ini mustahkamlash va har tomonlama tarbiyalash vositasi sifatida qarashgan.




**G.V.Plexanov:** jamiyatning tarixiy rivojlanish jarayonida mehnat o`yindan yuqori tursa ham, lekin bola hayotida o`yin faoliyati

mehnatdan oldin ekanligini birinchi bo`lib isbotlab bergan edi.



**N. E. Pisarev** Harakatli o`yinlarga shunday ta`rif beradi. Barcha harakatli o`yinlar shug`ullanuvchilar organizmiga kompleks ta`sir ko`rsatadi. Shuning uchun ham harakatli o`yinlarga umumiy jismoniy ta`sir ko`rsatuvchi mashq sifatida qarash balki rivojlantiruvchi vosita sifatida etirof etish ham mumkin deydi.



**P. F. Lesgaft** o`zining jismoniy mashqlar sistemasida o`yinlarni jismoniy tarbiya vositasi sifatida ifoda-laydi. U o`yin yordamida hayotga tayyorlanishini aytadi. P. F. Lesgaftning harakatli o`yinlarni o`tkazish uchun qo`ygan talablari hozirgi paytgacha o`z qimmatini yo`qotgani yo`q, u har bir o`yin oldiga aniq maqsadlar qo`yishi, o`tkazilayotgan o`yinlar qatnashuvchilarning kuch va qobiliyatlariga mos kelishi, o`yin shug`ullanuvchilarga ijobiy emosional ta`sir ko`rsatishi kerakligini, o`yinlarni sistemali tarzda va muntazam ravishda o`tkazish, qatnashuvchilarning aktivligi va mustaqilligini oshirishga harakat qilish kerakligini tushuntirgan edi.



**N. K. Krupskaya** o`yinlar bola hayotida ahamiyatli ekanini ta`kidlab, shunday degan edi. “Bolalar faqat o`qish mobaynida o`sib qolmay, balki o`yin jarayo-nida ham o`rganadilar, ular uyushishni o`rganadilar, hayotni tushunishni o`rganadilar”. N. K. Krupskaya-ning fikricha, ishni shunday tashkil qilish kerakki, o`yinlar yosh avlodni tarbiyalashga yordam bersin. O`yinlar har xil bo`ladi. Ba`zi o`yinlar borki, ular bolalarda qo`pollikni, maqtanchoqlikni, kekkayishni va boshqalarni o`stiradi.

Shunday o`yinlar borki, ular o`z o`rtog`iga yordam berish, chidamli bo`lish kabi fazilatlarni tarkib toptiradi.



**A. S. Makarenko** o`yinlar bolalar va yoshlarni mehnatga tayyorlaydi, deb fikr bildiradi Uning fikricha kattalar hayotida mehnat qanday ijobiy rol o`ynasa, bolalar hayotida ham o`yin shunday katta ahamiyatga ega. A. S. Makarenko maxsus ish harakatlariga o`xshash harakatlarni talab etuvchi o`yinlarni birinchi o`ringa qo`yar edi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarni badantarbiya va faol jismoniy harakatlar bilan shug`ullantirish, turli milliy va harakatli o`yinlarni o`rgatish juda muhimdir. Bu borada sharq va g`arb allomalarining harakatli o`yinlar haqidagi qarashlari ham juda ahamiyatli hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim vazirligining Muvofiqlashtiruvchi kengashining 2022-yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan «Ilk qadam» davlat o`quv dasturi T.: 2022.

2. Ashirova S. B. «Bolalar jismoniy tarbiyasi nazariyasi va texnologiyalari» o`quv qo`llanma «Fan va texnologiyalar ijodiy-matbaa uyi» T.: 2024.

3. Ma`murov B. B —Bolalar rivojlanishida jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi o`quv qo`llanma —Turon zamin ziyol T.: 2014.

4. Usmanxodjayev. T. S, Isroilov. Sh. X, Pulatov. A. A Pulatov, Sh. A —Milliy va harakatli o`yinlarl darslik T.: Iqtisod-Moliya 2015



5. Usmanxodjayev.T.S, A.A Pulatov, Tajibayev. S.S. Pulatov. F.A —Sport va harakatli o`yinlarl Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Tashkent. 2018.